



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITASI RAISING BUYRUG‘I

2026-yil 16-iyun

68-A-son

Ichki audit xizmati faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi “Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 416-son qarori ijrosini ta’minlash, Qo‘mita tizimida budjet intizomini mustahkamlash, budjet mablag‘laridan maqsadli, samarali va natijador foydalanilishi ustidan ichki nazoratni kuchaytirish, ichki audit faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita markaziy apparati tarkibida Ichki audit xizmati boshqa tarkibiy tuzilmalardan mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining Ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizomi 1-ilovaga;

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita Ichki audit xizmati lavozim yo‘riqnomasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

Ichki audit xizmatining asosiy maqsadi budjet intizomini mustahkamlash va budjet to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining buzilish holatlarini profilaktika qilish, budjet xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini baholash hamda ichki audit faoliyati sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlash hamda tizimdagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobyudjet muassasa hamda tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishdan iborat;

Ichki audit xizmati Qo‘mita raisiga bevosita bo‘ysunadi va hisobdor hisoblanadi;

Ichki audit xizmati faoliyatiga Qo‘mitaning boshqa tarkibiy tuzilmalari, mansabdor shaxslari hamda xodimlari tomonidan aralashuvga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Ichki audit xizmati (J.Omanov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan Nizom va lavozim yo'riqnomasi talablari asosida xizmat faoliyatini tashkil etsin hamda ichki audit tadbirlari natijalari yuzasidan Qo'mita raisiga belgilangan tartibda axborot kiritib borsin.

5. Devonxona (N.Rashidova) mazkur buyruq va uning ilovalarini Qo'mitaning barcha tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalari va tizim tashkilotlariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Rais



S.Toshboyev